

## RASULULLOHNING G‘ORDAGI BIRODARI

**Hamzayev Ravshanbek Erkinjon o‘g‘li**  
Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti Tarix  
fakulteti 2-bosqich talabasi  
E-mail:[ravshanbekhamzayev04@gmail.com](mailto:ravshanbekhamzayev04@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan keyingi insonlarning eng afzali,u zotning g‘ordagi birodari, Sahobalar Sayyidi,Ilm va unga amal qilishda barcha musulmonlarga o‘rnak bo‘ladigan inson,islomni ilk qabul qilgan kishi, Rasululloh(s.a.v) bilan birinchi bo‘lib namoz o‘qish sharafiga erishgan Sahoba haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Siddiq, Hijrat, Do‘zax, Imomlik, Quddus, Isro va Me’roj, Sahoba, Madina, Quraysh.

## БРАТ ПРОРОКА В ПЕЩЕРЕ

### АННОТАЦИЯ

В этой статье рассказывается о лучшей человек после Пророка, мир ему и благословение Аллаха, его брате в пещере, Сайде из сподвижников, человеке, являющемся примером для всех мусульман в его изучении и практике, первом человеке, принявшем ислам, первом сахабе, удостоившемся чести молиться с Пророком.

**Ключевые слова:** Сиддик, Хиджра, Ад, Имамат, Иерусалим, Исры и Мираджа, Сахаба, Медина, Кирейшиты.

## THE PROPHET’S BROTHER IN THE CAVE

### ABSTRACT

This article talks about the best of person after the Prophet, peace and blessings of God be upon him, his brother in the cave, Sayyid of the Companions, a person who is an example for all Muslims in learning and practicing it, the first person who embraced Islam, the first Sahaba who had the honor of praying with the Prophet.

**Keywords:** al-Siddiq, Hijrah, Gehenna, Imamate, Jerusalem, Isra and Mi’raj, Sahaba, Medina, Quraysh.

## KIRISH

Abu Bakr Siddiq Abdulloh ibni Abu Qahhofa Ibn Omir (571-634):

Dastlabki to‘rt xalifadan birinchisi(632-634). Payg‘ambarimizning eng yaqin safdoshi, qaynotasi (Oisha onamizning otalari), yirik savdogar. Makkaning Quraysh qabilasidan bo‘lganlar. Siddiq deb atalishiga sabab shuki, Isro va Me’roj kechasi hodisasini eng birinchi bo‘lib tasdiqlagan. Muhammad payg‘ambar(s.a.v) unga Siddiq, ya’ni Iymoni kuchli deb laqab beradi. Makkadan Madinaga(Yasrib) hijrat qilishda Muhammad(s.a.v)ga hamroh, G‘ordagi birodari hisoblangan. Badr, Uhud, Handaq, Xudaybiya janglarida ishtirok etadi. Hazrati Bilol(r.a)ni qullikdan ozod etadi. Arab qabilalarining Madina hokimiyatiga qarshi isyonlarini bostiradi. Uning Xalifalik yillarida Iraq va Suriya zabit etilgan. Xazrati Abu Bakr Siddiq 634-yil vafot etadi va Madinadagi Masjidul Nabaviyga dafn etiladi.[1:62;63]

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhu katta kishilardan birinchi bo‘lib iymonga kelganlar. U kishi Quraysh qabilasida katta obro‘ga ega edilar. O‘tkir aqllari, muruvvatlari, adolatlari va boshqa oliv sifatlari uchun ko‘pchilik Abu Bakr roziyallohu anhuni yaxshi ko‘rar va hurmat qilar edi.

Abu Bakr roziyallohu anhu o‘zlarini iymonga kelganlaridan keyin Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan nima ish qilish kerakligini so‘radilar. U zot sollallohu alayhi vasallam: “Odamlarni Islomga da’vat qiling”, dedilar. Hazrati Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhuning da’vatlari samarasi o‘laroq, o‘sha paytda Qurayshning sharaflilaridan bo‘lgan, keyinchalik sahobalarining ulug‘lariga aylangan va jannatga kirishlariga bashorat berilgan (Asharai Mubashshara) o‘n kishining besh nafari-Usmon Ibn Afg‘on, Zubayr Ibn Avvom, Abdurahmon Ibn Avf, Sa’d Ibn Abu Vaqqos va Talha Ibn Ubaydulloh roziyallohu anhum iymonga keldilar.[3:213;214]

Hazrati Abu Bakr Siddiq juda ham sahiy inson bo‘lganlar.Qur’oni Karimda ham bunga ishorat keltirilgan. Jumladan Qur’oni Karimning Layl surasi 17-18-oyatlarida quyidagicha keltirilgan:“Taqvoli kishi esa undan(do‘zaxdan) uzoqlashtirilur.Qaysiki,u mol-davlatini (yaxshilik yo‘lida) sarf qilur”.

Hadisi qudsiyalarda ham Uning nomi ulug‘langan hisoblanib. Jumladan, Payg‘ambarimiz vafotlaridan oldin Hazrati Abu Bakr (r.a)ga imomlik qilishni topshirgani keltirilgan:

Abu Muso rivoyat qiladirlar: «Rasululloh sallallohu alayhi vasallam betob bo‘lib qoldilar. Kasallari kuchaygach: «Abu Bakrga buyuringiz, jamoat oldiga chiqib imomlik qilsin!» — dedilar. Oisha onamiz: «Abu Bakr ko‘ngli yumshoq kishidirlar, sizning o‘rnингизда turib imomlik qila olmag‘aylar»,— dedilar. Janob Rasululloh: «Odamlarga buyuringiz, Abu Bakr jamoat oldiga chiqib imomlik qilsin!» — deb qaytarib aytdilar. Oisha onamiz yana rad qildilar. Janob Rasululloh: «Abu Bakrga

buyuringiz, jamoat oldiga chiqib imomlik qilsin! Siz xotinlar Yusuf alayhissalomning qissasidagi xotinlar singaridirsizlar», — deb yana qaytarib aytdilar. Janob Rasulullohning buyruqlarini Abu Bakrga yetkazishdi. Abu Bakr Janob Rasulullohning hayotliklarida jamoat oldiga chiqib imomlik qildilar». [6:134]

Boshqa hadislarda ham Uning Rasulullohga qanchalik yaqinligi keltirilgan. Abu Sa'id rivoyat qiladilar: «Rasululloh sallallohu alayhi va sallam xutbada va'z aytib: «Olloh taolo bandasiga bu dunyoni yokim o'zining huzuridagi oxiratni tanlamak imkonini berdi, bandasi Olloh huzuridagisini tanladi», — dedilar. Shunda Abu Bakr yig'ladilar. Men o'zimga o'zim: «Bu mo'ysafid nega yig'layotir erkan, Olloh bandasiga: «Bu dunyoni yokim oxiratni tanlag'il!» — desa, bandasi Olloh huzuridagi oxiratni tanlasa, shunga ham yig'laydirmi?» — dedim. Keyin bilsam, o'sha banda Rasululloh sallallohu alayhi va sallam: «Ey, Abu Bakr, yig'lamangiz! Siz molini ham, ezgu so'zini ham mendan ayamagan eng yaxshi odamdirsiz! Agar Ollohdan boshqa yana ummatlarimdan biror kishini ham o'zimga xalil (eng yaqin do'st) tutmog'imga ijozat bo'lg'ay erdi, Abu Bakrni do'st tutar erdim. Ammo bu mumkin emasdir. Islom birodarligi va islom do'stlig'igina mumkindir. Uydan masjidga qaratib ochilgan darchalarning birortasi ham qoldirilmay, urib tashlansin! Faqat Abu Bakrning darchasigina qolsa, basdir!» — dedilar». [6-98;99]

## NATIJA

Abdulloh ibn Umar uni quyidagicha ta'riflagan:

— Quraysh qabilasida uch kishi borki, ular insonlarning eng ochiq chehrali, go'zal ahloqli va hayoliroqlaridir. Agar sizga gapirgudek bo'lsalar, bir luqma ham yolg'on qo'shmaslar. Agar siz ularga gapirsangiz, sizni yolg'onchiga chiqarmaslar. Bulardan biri Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhudir. [2:33]

Isro va me'roj haqidagi haqiqatlarga ishonmagan mushriklar Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhuning oldiga kelishadi::

— Ey Abu Bakr, do'sting Muhammad so'zini ongladingmu, yana bir yangi yolg'on chiqardi. Ikki oylik yo'l — Quddus shahriga kechaning bir qismida borib keldim, deydur.

Endi sen bunga ham ishona olurmisan? — dedilar. Anda Abu Bakr:

— Agar shu so'zni aning aytgani rost bo'lsa, u to'g'ri aytgan, albatta, unga ishonurman.

Chunki yetti qat osmon ustidan, kecha-kunduz soatlar ichida unga kelgan vahiy xabarlariga ishonib, uni tasdiq qilurman. Endi buni nechuk tasdiq qilmagayman, — dedilar. [5:52]

## MUHOKAMA

Taqdir bitigi Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning yonlarida bo‘lgan, hayoti davomida eng yaqin do‘st bo‘lish sharafiga erishgan insonni, Birinchi xalifa qilib tayinlagan. Ammo, Alloh taoloning qismati buyuk xalifaga ikki yil, uch oy, o‘n kun hayot in’om qilib, so‘ng o‘z huzuriga chaqirgan. Islom tarixi va hadis kitoblari bu ikki yillik davr haqida ham, Hazrat Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhuning Shaxsi haqida ham yetarlicha ma’lumot bermaydi. Bu davrda Musaylama, Tulayha, Sajoh kabi payg‘ambarlik da’vosini qilgan yolg‘onchilarga qarshi janglar, Bizans va Eron bilan urushlar va ul zotning qilgan yaxshiligu, ishlari haqida yetarli ma’lumotlar afsuski yo‘q. Hazrat Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhuning "Allohim, Qiyomat kuni meni jahannamingga qo‘y, vujudimni shu darajada kattalashtirki, toki jahannamda mendan boshqa hech bir kishiga joy qolmasin" deb iltijo qilgani, ul zotning naqadar marhamatli ekanligining isbotidir. Hazrati Abu Bakr Siddiq hayoti Bugungi islom ummati uchun yorqin namuna bo‘la oladi deb o‘yayman.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Islom tarixidagi Ulug‘ sahobiylardan biri bo‘lgan Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhuning hayoti Tarix zarvaraqlariga oltin harflar ila bitilgan. Yoinki Tarix, hattoki Alloh taolo o‘zining muqaddas kitobi Qur’oni Karimda ham uning nomini aytib o‘tgan. Bu naqadar ulug‘ martaba hisoblanadi:

Tavba surasi 40-oyatda Alloh taolo: "Agar sizlar unga (Muhammadga) yordam qilmasangiz, Alloh (O‘zi) unga yordam qilgan. Qachonki, uni kofirlar ikki kishining biri sifatida (vatanidan) chiqarib yuborganlarida, ikkovilari g‘orda turib, (Muhammad) hamrohi (Abu Bakr)ga: "Tashvish chekma! Albatta, Alloh biz bilan birgadir!" - degan edi. Shunda Alloh unga taskin (xotirjamlik) nozil etdi va sizlar ko‘rmagan lashkarlar (farishtalar) bilan uni quvvatladi hamda kofir bo‘lganlar so‘zini tuban qildi. Allohning so‘zi esa, u yuksakdir. Alloh qudratli va hikmatli (zot)dir." dedilar.

Xa. Bu ulug‘ zot o‘sha kishi edi. Sahobalar Sayyidi, Nomi Qur’oni Karimda zikr etilgan, Payg‘ambarimizning G‘ordagi birodari va eng yaqin do‘sti, hali tiriklik chog‘ida Jannat bashorati berilgan Alloh taoloning mo‘min bir bandasi: Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhu.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

- 1) O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 1-jild. \_T.: "O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi", 2000.
- 2) Doktor Abdurahmon Ra‘fal al-Basho. Sodiq sahabalar qissasi. \_T.: "O‘zbekiston", 1997.
- 3) Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Islom Tarixi. 1-kitob. \_T.: "Hilol-Nashr", 2018.

- 4) Abdulaziz Mansur.Qur'oni Karim ma'nolarining tarjimasi.\_T.:“Toshkent Islom Universiteti”,2012.
- 5) Alixonto‘ra Sog‘uniy.Tarixi Muhammadiy.\_“www.ziyouz.com”,2007
- 6)Imom Ismoil al-Buxoriy.Al-Jomi’ As-Sahih.1-jild.\_T.:“Qomuslar bosh tahririyati”,1991.
- 7) Ahmad Lutfiy Qozonchi.Abu Bakr Siddiq.\_T.:“Movarounnahr”,2005.